



## “Involta” Ilmiy Jurnali

Vefsayt: <https://involta.uz/>

### DISKURS TAHLIL TUSHUNCHASIGA LINGVISTIK YONDASHULAR TAHLILI

**Taniyeva Lobar Baxromovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada diskurs tahlil tushunchasining tilshunoslikda qo'llanilishi va uning kelib chiqish tarixi jahon tilshunosligida diskurs tahlil tushunchasi borasidagi qarashlar va ularning mohiyati keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, diskurs tahlil, matnshunoslik, nutq, so'z, matn, tahlil

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasıdır. Kundalik hayotda diskurs atamasiga ko'p bor duch kelinadi. Aksariyat insonlar uning asl mohiyatini anglashmaydi. Sohada diskursni turlicha talqin etishadi. Juda ko'p tilshunoslar diskursni (fransuzcha discourse, inglizcha discourse, lotincha discursus – harakat, uzliksiz almashinish, suhbat, so'zlashish) nutqiy faoliyat jarayoni hamda so'zlashish uslubi kabi mazmunlarda talqin etishadi.

Jumladan, 1960-yillar boshlarida antrapolog Dell Humes ilk bor bo'lib diskurs tushunchasi va uning ahamiyati bilan shug'ullana boshlagan. U kuzatishlari

asosida diskurs tushunchasini lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka sohasiga olib kirgan. Dell Humes mulohazasiga ko'ra diskurs kishilarning og'zaki nutqda bir- birilari bilan muloqotga kirishishidir . Dell fikriga ko'ra diskurs bu faqatgina muloqotdir, ammo diskurs nafaqat muloqotni balki matn bilan ham o'zaro uyg'unlikda sodir bo'ladigan holat ekanligini unutmaslik kerak.

Tilshunoslikda "diskurs" tushunchasi nisbatan yaqinda o'rganila boshlandi. O'tgan asrning o'rtalariga qadar tilshunoslар tilni rasmiy nuqtai nazardan - ma'lum bir vaziyatda odamlar tomonidan o'z maqsadlariga muvofiq ravishda juda mavhum tizim sifatida ko'rib chiqdilar. Nutq formalistik tahlilga bo'ysunadi, lekin uni faqat u bilan cheklab bo'lmaydi. Funksionalistlar tilning mavjudligi shaklinigina emas, balki u bajaradigan vazifalarni ham hisobga oladi.

Tilshunoslikda "diskurs" atamasi birinchi marta amerikalik olim Z.Xarris tomonidan 1952-yilda chop etilgan "Diskur tahlili" maqolasida qo'llangan. Ushbu maqolada u matn nima ekanligini qanday aniqlash mumkinligi haqidagi savolni ko'tardi. Z.Xarris tilda sintaksisdan bir pog'ona yuqori bo'lgan tizim mavjudligini, matn tushunchasi ham shu tizimga mansub, degan fikrni ilgari surgan. Diskurs tahlili, uning fikricha, tilning qoliplarini (strukturasini,) gapdan ko'ra kengroq elementlarda ko'rib chiqadi. U nutqni "muayyan vaziyatda bir (yoki bir nechta) shaxs tomonidan yozilgan yoki aytilgan bayonotlar ketma-ketligi" deb ta'riflagan.

Biroq, faqat 1970-yillarga kelib, diskursiv tahlil alohida fan sohasiga aylandi. Bu davrda tilshunos olimlarning T.A.van Deyk, U.Cheyf va boshqalarning ushbu kontseptsiyaga bag'ishlangan asarlari nashr etilgan. Diskurs tahlil tushunchasiga lingvistik yondashuvlar va uning mazmun mohiyatini ochib berish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

V.E.Chernyavskaya nutq tushunchasini matn tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqib, quyidagi ta'rifni beradi: "Diskursni situatsion kontekst bilan chambarchas bog'langan matn(lar) sifatida tushunish kerak" deb ta'kidlaydilar

V. Z. Demyankov esa "Diskurs – bir nechta gapdan yoki gapning mustaqil qismidan tashkil topgan matnning ixtiyoriy bo'lagi" deb izoh beradi.

Tilshunos Yu.S.Stepanov quyidagi ta'rifni beradi: "Diskurs – ma'lum grammatik va leksik sxemalar qo'llanishi natijasida o'ziga xos mentalitet yoki mafkurani ifodalovchi tildan foydalanish tizimidir" deb ta'riflaydi.

Professor Karasik: "Diskurs - bu matn va kommunikativ vaziyatning birligi", deydi va nutqni o'rganishning uchta yondashuvini nomlaydi.

O'zbek tilshunosligida diskurs maxsus tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. Tilshunos matn va diskurs muammolari to'g'risida quyidagilarni qayd etadi: "agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriyligi – formal ko'rsatkichiga asosan "og'zaki" va "yozma" sifatlari bilan farqlash imkoniga gumanim bor.

Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko'rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko'rinishda tasavvur qilish qiyin masala. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli bo'ladigan bo'lsa, erishilgan natija moddiy ko'rinish olishi kerakku? Yuqoridagi tilshunos olimlarning fikrlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, "diskurs – bir paytning o'zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning (faoliyatning) mahsulidir".

Shunday qilib, diskurs bu insonlarning o'zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir- biriga turli ma'lumotlarni yetkazishi, ma'lumotlarni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhabatdoshga ham tushunarli bo'lgan jarayon diskurs hisoblanadi. Diskurs dialogik hamda monologik shaklda uchrashi mumkin. Pragmatik talqinlarga ko'ra diskurs atamasining sakkiz xil ma'noda uchrashi qayd etiladi:

- so'z muqobili;
- frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik;
- nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta'siri; 4) suhabat;
- nutqda so'zlovchi pozitsiyasi;
- lisoniy birliklardan foydalanish;
- fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;

➤ matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar .

Boshqa ma’lumotlarda diskursning janr kabi ekanligi, nutqiy janr - tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o‘ziga xosligi, aniq adresat, ma’lum kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi ekanligi yoritiladi . Maxsus olib borilgan tadqiqotlarda diskursning ijtimoiy tabiatni orqali diskursning publitsistik diskurs ,siyosiy diskurs, ilmiy diskurs badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelganligi qayd etiladi.

Ko‘rinadiki, talqin va izohlarining xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko‘p qirrali va keng qamrovli ekanligini namoyon etadi. Eng avvalo, diskurs ifodalanish vositasiga ko‘ra, ikki og‘zaki va yozma kabi boshlang‘ich guruhlarga bo‘linadi. Shu o‘rinda diskursning uchunchi guruhini ham keltirish lozim fikriy diskurs bunda akustika ham, grafik belgilar ham qo’llanilmaydi.

Fikriy diskurs ham kommunikativ qo’llaniladi, lekin uni kuzatish murakkab bo‘lganligi tufayli kam tadqiq etilgan. L.S.Vigotskiy ichki nutqni tadqiq etgan va fikriy diskurs masalasiga to’xtalib o’tgan.Ko‘p hollarda diskurs turlari janr tushunchasi yordamida tushuntiradi. M.Hallidey diskursni uning parametrlari orqali, elmemtlar, mavzusi, uslublari orqali xarakterlaydi.

Diskurs tushunchasi ostida odamlarning ijtimoiy muloqotga kirishishi uchun asosiy qurol tushuniladi. So’ngi paytlarda zamonaviy lingvistik tadqiqt materiallarida diskursning quyidagi tiplari ajratiladi: pedagogic, siyosiy, tanqidiy, harbiy, diniy, iqtisodiy, ilmiy, o’quv, publitsistik, reklama va h.k. Ya’ni inson faoliyatining har qanday jabhasiga taalluqli diskurslar mavjud.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь; гл. ред. В. Н. Ярцева. – М. : Сов. Энциклопедия, 1990.
2. Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс.- Б., 2000.

3. Горбунов А. Г. Дискурс как новая лингвофилософская парадигма. – Чита, 2001
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И. Карасик. – М: Гнозис, 2004
5. Борбелько В.Г. Элементы теории дискурса. - Грозный: Изд-во Чечено-Ингуш. гос. ун-та, 1981